



RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK KORREKSION ISHLAR

Abdusattorova Mahliyo Baxtiyorovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

"Pedagogika va Psixologiya" fakulteti Defektologiya [logopediya] yo'naliishi

Annotatsiya : Maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni erta aniqlab ularga tashxis qo'yish, nuqsonni erta bartaraf etish, logopedik korreksion ishlar olib borish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Reabilitatsiya, kompleks, korreksiya, nuqson, rivojlanish, ijtimoiy, diagnostik, psixik, jismoniy, intellektual, tashxis, , defferensial, logoped, nutq

Annotation: The article talks about early identification of children and adolescents with developmental disabilities and their diagnosis, early elimination of the defect, and speech therapy correctional work.

Keywords: Rehabilitation, complex, correction, defect, development, social, diagnostic, mental, physical, intellectual, diagnosis, , differential, speech therapist, speech

Аннотация: В статье говорится о раннем выявлении детей и подростков с отклонениями в развитии и их диагностике, раннем устранении порока и логопедической коррекционной работе.

Ключевые слова: Реабилитация, комплексная, коррекция, дефект, развитие, социальная, диагностическая, психическая, физическая, интеллектуальная, диагностика, дифференцированная, логонед, речь.

Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bor bolaning tug'ilishi oilaning istiqbolini tubdan o'zgartiradi. Mamlakatimizda farzand tarbiyasiga ota-onal oldida ko'plab mas'uliyatli vazifalar ko'ndalang turadi, nuqsoni bor bolani tarbiyalashda esa ular bir necha muammolarga duch keladilar. Bunday oilalarni aniqlash, alohida yordamga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish va mакtabga tayyorlashda ularning ota-onalariga bu borada korreksion-pedagogik yordamni berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Davlatimizning ustivor siyosati yosh avlodni ma'nан yetuk, jismonan sog'lom va aqlan barkamol qilib voyaga etkazishdir. Bu o'rinda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ayrim ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar tarbiyasi alohida e'tiborda bo'lib kelgan. Bola tarbiyasi dastlab oilada o'z ota-onasining bag'rida jismonan, aqlan va ma'nан shakllanib boradi. Farzandlar tarbiyasi ko'p jihatdan oiladagi muhitga, atrofdagi kattalarning bolani tarbiyalashga bo'lgan munosabatiga bog'liqligi, ota-onaning jamiyat oldida mas'ul ekanligi, davlatimizning qator qonun va qarorlarida qayd etilgan.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri

baholay olishga bog'liqdir. Bu vazifani rivojlanish nuqsonlarini kompleks psixologopedagogik diagnostika qilish orqali amalga oshirish mumkin. Psixologopedagogik diagnostika rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalaming kamchiliklarini aniqlash, bolaning psixik-jismoniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unga individual psixologo-pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va maktab ta'lif muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lif sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlardan awalo har bir bolaning xususiyatlari e'tiborga olgan xolda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, keraqli maxsus texnik vositalami, maxsus tayyorgarlikga ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy -profilaktik hamda davolov tadbirlarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lif muassasalarini texnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lif muassasalari mavjud. Bolalar puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljalangan va O'zbekiston respublikasi xalq ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lif dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lif muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitatsiya markazlari, rivojlantirish markazlari, aralash guruuhlar ochilgan. Shuningdek, umuta'lif maktabgacha ta'lif muassasalarida, umumta'lif maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni uchratish mumkin. Ushbu nuqsonlarning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Son jihatdan yirik bo'lgan guruohni harakatlanish, sensor yoki intellektual sohalarda nuqsonlari aniq ifodalananmagan: eshitishda, ko'rishida, fazoviy-idrok tassavurlarida, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokida nuqsoni bo'lgan, hissiy-irodaviy buzilishli, nutqiy rivojlanishida kamchiliklarga ega, xulq buzilishlariga ega, psixik rivojlanishi orqada qolgan, somatik sust bolalar tashkil etadi. Yaqqol ifodalangan psixik yoki jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar maktabgacha yoshda aniqlansa, yengil nuqsonlar uzoq vaqt mobaynida e'tiborsiz qoladi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik-jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo'ladi.

Ikkinci bosqich - rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko'ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning ta'lif olishlari uchun ta'lif muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yo'llanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada yetakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich - fenomenologik. Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlari, ya'ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi,

ishchanlik qobiliyati, shaxsi o'rganilib u bilan ishlash bo'yicha korreksion rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir.

Ma'lumki, nutq-odamlarning til vositasi bilan aloqa bog'lashlaridir. Odam nutq orqali munosabatga kirishib, o'zining bilimlarini faqat yakka tajriba hisobiga emas, balki juda ko'p avlod-ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy tarixiy tajriba hisobidan ham boyitadi. Nutq barcha aks ettirish jarayonlari kabi har bir odamning yakka hayoti davomida o'zlashtiriladi. Bola dastlabki nutqni egallayotgan davrda uning nutqi tovushlarga bo'lgan reaktsiyasi juda umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Bolani nutqi rivojlanayotganda, u atrofdagi odamlar muloqoti ta'siri ostida rivojlanib boradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi, lug'at boyligi oshishida va rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. ENB bolalar eshitish analizatori turqun pasayganligi tufayli ulaming nutqida ko'pgina kamchiliklar kuzatiladi, lug'atining kambag'al bo'lishi, gramatik komponent rivojlanmagan, gap ichida so'zlarni tashlab ketishi, so'zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz etish, so'zlarni o'zaro boqlay olmaslik, kelishik, so'z yasovchilarni, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik, o'xshash jarangli va jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish shular jumlasidandir. ENB bolalar mакtabida ta'lim tizimining bosh maqsadlaridan birini yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etgan xolda nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki rivojlanishda nuqsoni bor ta'limga layoqatli bolalarni ta'lim olishlari uchun pedagoglarning sa'yi-harakatlari ota-onan tomonidan qo'llab-quvvatlanmayotganligi tufayli ozmuncha qiyinchilikka uchraydilar. Buning eng asosiy sabablaridan biri ota-onaning bola tarbiyalashga kerakli ravishda tayyor emasliklaridir. Shuning uchun ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ota-onalarda korreksion-pedagogik savodxonlikni oshirish har jihatdan zimmamizdagi ulkan vazifa deb o'ylayman. Chet el adabiyotlarida rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga go'daklik davridanoq erta yordam ko'rsatishning turli modellari yozilgan bo'lib, bunda Shvetsiyadagi markazlar, AQSHdagi erta dahl qilish dasturi kiradi. Sankt-Peterburg shaxridagi "Integratsiya tarbiya markazi" yuqoridagi markazlarning modeli asosini hisobga olgan holda Erta yordam ko'rsatish xizmatini tashkil etgan bo'lib va hozirgi davrgacha ish olib bormoqda. Erta yordam ko'rsatish xizmatining faoliyati rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning go'daklik davridanoq (0 dan 3 yoshgacha) va ular oilalariga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mamlakatimizda ham shunday e'tibor va yordam ko'rsatish faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmoqda.



CANADA



CANADA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi". Toshkent 2016 —yil.
2. "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish" o'quv - uslubiy majmua.
3. M.Y.Ayupova. " Logopediya" 10.08.2007-yil
4. Raxmanova V.S. " Korreksion pedagogika va logopediya " 2007-yil
5. M.Y.Ayupova. "Logopediya" O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil.
6. Xasanova M. M, Halimova O. M. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'RGANISHGA KOMPLEKS YONDOSHUV. Международный научный журнал №5 (100), часть2 «Научный импульс» Декабрь, 2022. b1784-1788.